

SO‘NGGI YILLAR AFG‘ON ADABIYOTIDA AYOL OBRAZI TASVIRI

Qasemi MAWLUDDIN,

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878129>

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘nggi yillar afg‘on adabiyotida yaratilgan asarlarda ayollar obrazining tasvirlanishi tahlilga tortildi. Afg‘onistonda vac her elda yashab ijod qilayotgan afg‘on yozuvchilarining asarlarida tasvirlangan ayollar obrazining muhim jihatlari maqolada ochib berildi.

Tayanch so‘zlar: ruhiyat tasviri, dialog, monolog, konflikt, bosh g‘oya, ayol, yor, ojiza

So‘nggi yillarda yosh afg‘on yozuvchilarining asarlarida ayollar obrazlarining taqdirini, uning qiyinchiliklarini yaratishga bo‘lgan urinishlar ortmoqda. Yosh ijodkorlar o‘z asarlarida ayollarni an‘anaviy va zamonaviy rollarni uyg‘unlashtirgan qahramonlar sifatida tasvirlaydi. Ularning qahramonlari o‘ziga xos individualligi, kuchli intilishlari va erkinlikka bo‘lgan talabi bilan ajralib turadi. Yosh yozuvchilar asarlarida ayollar nafaqat jamiyatning passiv a‘zosi, balki uning faol o‘zgarishlariga turtki beruvchi asosiy shaxslardan biri sifatida tasvirlanadi. Bu yangi tendensiya afg‘on adabiyotida ayol obrazlarining boyishi va rivojlanishiga imkon yaratmoqda.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda tan olingan afg‘on ayol yozuvchilari orasida Nadiya Hoshimiy, Humayro Qaderiy, Nelufar Pazira, Malolay Juyo, Zakiya Zaki kabi ijodkorlar ajralib turadi. Ular nafaqat ayol siymosini chuqurroq tasvirlashga, balki afg‘on jamiyatida ayollar duch keladigan haqiqiy muammolarni yoritishga intilmoqda.

Ayollar hayotining qishloq va shahar o‘rtasidagi ziddiyatlarda aks etishi Afg‘oniston jamiyatida qishloq va shahar hayoti o‘rtasidagi farqlar ayollarning hayotini va ularning adabiyotdagi tasvirini ham keskin ajratib qo‘yadi. Zamonaviy asarlarda ko‘pincha qishloq ayollarining cheklangan hayot tarzi, ularga nisbatan an‘anaviy va qattiqqo‘l munosabati tasvirlanadi. Shu bilan birga, shaharlik ayollar obrazlarida ta‘limga ega bo‘lish, kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish va o‘z huquqlarini himoya qilishga bo‘lgan intilishlari aks ettiriladi. Qishloq va shahar o‘rtasidagi bu tafovut yozuvchilarni ikki turdagi hayotning qiyosiy tahlilini o‘rganishga ilhomlantirgan. Bu esa adabiyotda murakkab va boy ayollar obrazlarining yaratilishiga sabab bo‘lmoqda.

So‘nggi yillar afg‘on adabiyotida ayol obrazlari o‘ziga xos realizm va hayotiylik bilan ajralib turadi. Endi ayollar shunchaki bechora, passiv personaj emas, balki:

- o‘z taqdirini o‘zi belgilovchi;

- ijtimoiy adolatsizlikka qarshi faol kurashuvchi;
- urush va kamsitishlardan aziyat chekkan, lekin baribir o‘z orzularidan voz kechmaydigan inson;
- madaniy va diniy bosimlarga qaramay o‘z “men”ini izlayotgan ruhiy kuch egasi sifatida ko‘rinmoqda.

Xususan, Nadiya Hoshimiy o‘z romanlarida bir necha avlod ayollari taqdirini bog‘lab, tarixiy va zamonaviy hayotdagi o‘xshash muammolarni ko‘rsatadi. Uning asarlari orqali o‘quvchi afg‘on ayolining sabr-toqati, ruhiy mustahkamligi va o‘zlik izlanishini ko‘radi.

Erkak yozuvchilar ham so‘nggi yillarda ayol obrazini yaratishda yangicha qarashlarga ega bo‘la boshladi. Ayniqsa, Xolid Husaynining “Ming quyosh shu’lasi” romani afg‘on ayollarining fojiali, lekin kuchli obrazlarini yaratishdagi muhim asarlardan biri hisoblanadi. Bu romanda Maryam va Laylo obrazlarida insoniy iztirob, sevgi, sabr, irodaning nihoyatda chuqur tasviri berilgan. Ayollar bu asarda qurbon emas — ular barqarorlik, umid, va tiriklik timsoliga aylangan.

Husayniy orqali erkak yozuvchi ayol ruhiyatiga kirishga harakat qiladi, uning ichki kechinmalarini, qarshilik ko‘rsatish kuchini va o‘zini qurbon qilish darajasidagi fidoyiligini tasvirlaydi. Bu ayol obrazlari orqali yozuvchi jamiyatning ayollarga nisbatan adolatsiz muomalasini fosh qiladi va shu orqali o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy asarlarda ayol faqat ijtimoiy shaxs sifatida emas, balki psixologik jihatdan murakkab, ichki olamida turli ziddiyatlar bilan yashayotgan mavjudot sifatida tasvirlanmoqda. Humayro Qaderiy o‘z me’muarlarida o‘z hayotiy iztiroblarini, onalik va muhabbat, din va erkinlik, urf-odatlar va individuallik o‘rtasidagi ichki kurashlarni ochib beradi. Bu o‘zgarishlar zamonaviy afg‘on adabiyotida ayol ruhiyatining o‘ziga xos poetikasini shakllantirmoqda.

Yozuvchilar so‘nggi yillarda afg‘on ayollarining siyosiy kurashga qo‘shilganini, inson huquqlari uchun qilgan harakatlarini ham ko‘rsatishni maqsad qilishgan. Malolay Juyo singari yozuvchilar o‘z asarlarida faqat adabiy-badiiy tasvirni emas, balki hujjatli voqealarni, siyosiy kurashlarni, ayollar bilan bog‘liq qonunbuzarliklarni ham bayon qiladilar. Bu asarlar ayol obrazini ijtimoiy-siyosiy ongli shaxs sifatida ko‘rsatadi.

Ayol mualliflarning tili nozik, his-tuyg‘uga boy, poetik, lekin ayni paytda realistik bo‘lishi bilan ajralib turadi. Ular o‘z asarlarida soddalik bilan chuqur ma’no ifodalaydi. Tashqi voqealardan ko‘ra ichki kechinmalar, ruhiy jarayonlar, ong va qalb ziddiyatlariga ko‘proq e’tibor qaratiladi.

Shuningdek, badiiy uslubda ko‘proq metafora, ramz, ichki monolog, psixologik portretlar orqali obrazlar yoritilmoqda. Bu uslub afg‘on adabiyotini faqat kontent emas, formasi jihatidan ham yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Ayollar va oiladagi rollar adabiyotda ayollarning oiladagi rollari, xususan, ona, rafiqqa, qiz va opa sifatida tasvirlanishi muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillardagi asarlarda ayollar oilaviy an‘analarning himoyachisi sifatida emas, balki o‘z ovozi topishga intiluvchi shaxslar sifatida ko‘rsatilmoqda. Ba‘zi yozuvchilar oilaviy rollarni yangi nuqtayi nazardan qayta talqin qilishga intilmoqda. Masalan, ona sifatida ayollarning farzandlar ta‘limi va tarbiyasida innovatsion yondashuvlari yoki rafiqqa sifatida o‘z huquqlari uchun kurashlari adabiyotda keng tasvirlanmoqda. Bu o‘zgarishlar ayollar obrazining murakkabligi va ko‘p qirraliligini oshiradi. Afg‘on jamiyatida ko‘p asrlik madaniy urf-odatlar ayollarning hayotini boshqarib kelgan. Biroq, zamonaviy asarlarda bu urf-odatlarga qarshi kurashayotgan ayollar qiyofasi tobora keng yoritilmoqda. Yozuvchilar bunday obrazlarni yaratish orqali ayollarning o‘z huquqlari uchun kurashayotgan va madaniy cheklovlarga qarshi chiqayotgan jasoratli shaxslar ekanini ko‘rsatishga harakat qiladi. Xususan, erta turmush qurish, hijob yoki boshqa kiyinish talablari, ta‘lim olishga qo‘yilgan cheklovlarga qarshi chiqish kabi mavzular adabiy asarlarning markazida turadi.

So‘nggi yillardagi afg‘on adabiyotida ayollarning o‘zligini anglash jarayoni tobora dolzarb mavzuga aylangan. Bunday asarlarda ayollar hayotda o‘z o‘rnini topishga, ichki kuchlarini kashf etishga va jamiyatdagi rolini qayta belgilashga intiladi. Bunday obrazlar o‘z maqsadlari va orzulariga erishish uchun qiyinchiliklarni yengib o‘tgan, o‘zligini tan olishga erishgan shaxslarni tasvirlaydi. Bu qahramonlar, odatda, jamiyatdagi mavjud qoidalarni tanqid qilib, o‘z hayotini erkinlik va mustaqillik asosida shakllantirishga harakat qiladi.

Zamonaviy afg‘on adabiyotida yosh ayollar obrazlari ham muhim o‘rin tutadi. Bu obrazlar orzulari, intilishlari va kelajakka bo‘lgan umidlari bilan ajralib turadi. Yosh yozuvchilar o‘z avlodining yangi qahramonlarini yaratmoqda, ular kelajakni qurishda muhim rol o‘ynaydi. Bu qahramonlar orqali yozuvchilar yangi avlodning qadriyatlarini va umidlarini aks ettiradi. Yosh ayollar obrazlari ayollarning zamonaviy jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilishlarini ifodalaydi va ularning yangi ijtimoiy sharoitlarda qanday rivojlanishini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda afg‘on adabiyotida ayollar obrazini yaratishga bo‘lgan urinishlar murakkab va ko‘p qatlamli jarayonni o‘z ichiga oladi. Jamiyatda yuz bergan ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar ayollar tasvirining adabiyotda kengayishiga turtki bo‘ldi. Ayollar endilikda faqat an‘anaviy rollarda emas, balki jamiyatni shakllantiruvchi, uning rivojlanishiga hissa qo‘shuvchi, kurashchi va

"TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

mustaqil shaxslar sifatida tasvirlanmoqda. Bu yangi tasvirlar, bir tomondan, jamiyatdagi gender tengligi, ayollar huquqlari va ta'limga bo'lgan ehtiyojni yoritadi, boshqa tomondan esa afg'on adabiyotining zamonaviy global oqimlarga qo'shilishida muhim o'rin tutadi. Shu sababli, zamonaviy afg'on adabiyotidagi ayol obrazlari faqat milliy jamiyatning ko'zgusi bo'libgina qolmay, xalqaro miqyosda gender masalalari bo'yicha chuqur muhokamalar uchun ham poydevor yaratmoqda. Afg'on yozuvchilari va shoirlarining bu boradagi harakatlari nafaqat adabiy, balki ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, ayollarning jamiyatdagi o'rnini qayta belgilashga yordam bermoqda.

So'nggi yillar afg'on adabiyotida ayol obrazini yaratishga qaratilgan urinishlar keskin faollashdi. Bu obrazlar hayotiy, chuqur, ba'zan fojiali, ammo har doim insoniy. Afg'on ayoli — bu endi faqat jabrlangan emas, balki kurashchi, or-nomusli, o'z orzulari sari intilayotgan shaxs. Adabiyot bu haqiqatni ochib berishda, ayollarning ovozi dunyoga eshittirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda afg'on ayollari haqidagi asarlar xorijiy tillarga tarjima qilinib, xalqaro adabiy maydonda ham katta e'tibor qozonmoqda. Bu asarlar orqali butun dunyo afg'on ayolining hayotini, ichki kurashini, intilishlarini anglay boshladi. Shu bilan birga, bu obrazlar orqali afg'on adabiyoti global miqyosda tanilmoqda va o'ziga xos milliy ifodani saqlagan holda dunyo adabiyotiga kirib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
2. O'RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. "Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
3. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go'zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p. https://www.researchgate.net/publication/375649608_Issues_of_Distribution_of_Bear_Image_in_Uzbek_Novels.
4. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
5. Omanova, M. (2024). Importance of voice in expressive reading. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
6. Dilafruz, Kalandarova. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
7. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, <https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610>

"TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

8. O'RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. "Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
9. Burkhanova, F. "The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi." *Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation* 32.3: 32467-32472.
10. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA*. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).

